

HARBIY XIZMATCHILARNI O‘QITISHDA VA TARBIYALASHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

*Axmedov Baxtiyor Shodiyorovich
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari
Kichik mutaxassislarni tayyorlash markazi
Gumanitar va ijtimoiy fanlar sikli o‘qituvchisi,
zaxiradagi podpolkovnik*

Annotasiya: Ushbu maqolada harbiy ta’lim jarayonida harbiy xizmatchi shaxsini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, kasbiy mutaxassislikka yo‘naltirish va harbiy kadrlarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishning ayrim ma’lumotlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiyalar, ta’limda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy-texnik taraqqiyot, an’anaviy o‘qitish, kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Аннотация: В статье представлены некоторые сведения о широком использовании современных педагогических технологий в процессе военного образования, воспитании военнослужащих на основе передовых педагогических технологий, ориентации на профессиональную специализацию и подготовку военнослужащих.

Ключевые слова: педагогические технологии, современные технологии в образовании, научно-техническое развитие, традиционное обучение, национальная программа подготовки кадров.

Abstract: This article provides some information on the wide use of modern pedagogical technologies in the process of military education, education of military personnel based on advanced pedagogical technologies, orientation to professional specialization and training of military personnel.

Key words: pedagogical technologies, modern technologies in education, scientific and technical development, traditional teaching, national personnel training program.

Yangilanayotgan harbiy ta’lim tizimida yakuniy natija bevosita pedagogik jarayonni amalga oshiradigan pedagog mehnatining qanday tashkil etilishiga borib taqaladi.

Harbiy mutaxassis tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirish omillardan biri – bu jarayonga yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashdir.

Qator yillar davomida pedagoglar tomonidan dolzarb didaktik masalalarni aniq ifodalashga va unga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish muammosiga etarli e’tibor berilmagan. Biroq keyingi yillarda ta’lim tizimining rivojlanishi, turli sohada mutaxassislar tayyorlash masalasiga quyilayotgan talablarning kuchayishi sababli yangi pedagogik texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etishga katta e’tibor qaratilmoqda.

«Yangi pedagogik texnologiya», «Rivojlangan pedagogik texnologiya», «Ta’lim texnologiyasi» tushunchalari so‘nggi yillarda pedagogik adabiyotlarda, ta’lim muammolariga bag‘ishlangan ma’ruzalarda keng qo‘llanilmoqda.

Pedagogik texnologiyaning fan sifatidagi vazifasi ta’lim-tarbiya amaliyotida eng samarali va tejamli o‘quv jarayonlarini belgilashni, shaxsni kasb egasi sifatida

shakllantiruvchi pedagogik, psixologik qonuniyatlarni aniqlash, shuningdek falsafa, sosiologiya, fiziologiya, matematika, kibernetika, informatika va boshqa fanlarning qonuniyatlaridan foydalanish yo‘llarini aniqlashdan iborat [1, 65].

Oliy va o‘rta maxsus harbiy o‘quv yurtlaridagi, harbiy qism va bo‘linmalardagi ta’lim jarayoniga tadbiiq etiladigan yangi pedagogik texnologiyalar, avvalo, fanlar orasidagi bog‘liqlikni ta’minlash, ortiqcha va keraksiz qiyinchiliklarni bartaraf etish, fanlarni integrasiyalash, pedagoglar va ta’lim oluvchi faoliyatini oqilona tashkil etish, vaqtdan unumli foydalanish, harbiy xizmatchilar o‘rtasida tashabbuskorlik va sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirish, ijodiy ishlash tizimini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshirishga qaratiladi.

Ta’lim tizimi shaxsni shakllantirishi uchun, davlat standarti talablari asosida hamda jahon ta’lim tizimi darajasida kadrlar etishtirish uchun avvalo pedagog shaxsining har tomonlama mukammal bo‘lishini talab qiladi. Ayniqsa, bunda harbiy pedagogning mas’uliyati katta. U nafaqat tor ixtisosli harbiy mutaxassisni tayyorlaydi, balki uning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi, kamol topishi uchun o‘z hissasini qo‘shadi.

Harbiy ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarda ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta’minlanadi. Shu jihatdan harbiy ta’lim standartini belgilashda ta’lim jarayonining tarkibi, xuddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizasiyalash, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkoni hisobga olingan.

Hozirgi zamon harbiy mutaxassisining asosiy tavsifi – xotirasidan mavjud echimlarni izlab topa olish, bular yo‘qligida esa optimal qarorlarni qabul qilib, amaliyotga tadbiiq etishdir.

Asosiy masala – echimni ishlab chiqish. Aynan shu echimni topa olish – mutaxassis sifatini belgilaydi va aynan shu faoliyat uning rivojlanishini ta’minlaydi. Harbiy xizmatchilarni o‘qitish jarayonida, pedagogik texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o‘quv maqsadlariga erishiladi. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o‘qitish samaradorligi, asosan, o‘quvchining (kursatlarning, tinglovchilarning) o‘qitish jarayonidagi o‘rni, pedagogning unga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi [2, 70].

Harbiy xizmatchilarni (kursantlarni, tinglovchilarni) samarali bilim olishlari va amaliyotda olgan bilimlarini qo‘llashlari hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri xisoblanada, chunki bugungi kunda jaxonda va mintaqamizdagi harbiy-siyosiy vaziyat o‘zgaruvchanligi, harbiy xizmatchilarimizdan chuqur bilimga ega bo‘lishlagi va olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilishlari, harbiy taktik ayyorlik ishlata olishlari va dushman kuchlariga qarshi kutilmagan zarbalar berishlari kerak.

Shu sababli hozirgi kunda harbiy olimlar tomonidan harbiy xizmatchilarga (kursantlarga, tinglovchilarga) dars o‘tish metodikasiga yangilik yaratishgan, ya’ni jang olib borish maydonlarini kompyuter texnologiyalariga asoslanib, haqiqiy jang sharoitiga yaqinlashtirilgan dasturlar ishlab chiqildi, bundan tashqari harbiy jangovar texnikalarni boshqarish, va o‘q-otar qurollardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgata oladigan o‘quv trenajyorlar dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, harbiy qism va muassasalarda keng foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

Harbiy jangovar texnika va o‘q-otar qurollardan amaliy mashg‘ulotlar o‘tishda yoqilg‘i maxsulotlari va o‘q-dorilar sarfi ko‘p bo‘lib, iqtisodiy jihatdan zarar kltirilgan, hozirgi kunga kelib esa, harbiy jangovar texnikalarni boshqarishni o‘rganish va o‘q-otar

qurollardan to‘g‘ri nishonga olib otish bo‘yicha kompyuter texnologiyalari orqali dasturlardan foydalanib kelinmoqda bu esa iqtisodiy tejamkorlikni olib keldi.

Harbiy jangovar texnikalarni boshqarishni o‘rganish bo‘yicha ishlab chiqilgan qurilma, haqiqiy jangovar texnika bazasida yaratilgan bo‘lib, faqat bir joyda turgan holda kompyuterlashtirilgan dastur orqali boshqariladi, ya’ni harbiy xizmatchi (kursant, tinglovchi) 3 D formatida haqiqiy jang maydonida harbiy texnikani boshqarishni o‘rganadi.

O‘q-otar qurollardan otish mashqini bajarish va o‘zlashtirish uchun esa o‘q otish mashqlarini bajarish uchun panoramali qurilma (PKST) dan foydalanib, mashqlar bajarishadi.

Bu esa o‘z o‘rnida ham iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka, ham harbiy xizmatchilarni (kursantlarni, tinglovchilarni) haqiqiy jang maydonida jang olib borish bo‘yicha bilimlarini oshirgan holda ruhiy jixatdan chiniqishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida bayon etilgan mashg‘ulotlar avvalo O‘zbekiston Respublikasi sarhadlarini munosib qo‘riqlash va himoya qilishda, qolaversa iqtisodiy jihatdan tejamkorlikka, hamda harbiy xizmatchilarimizning (kursantlarimizning, tinlovchilarimizning) zamonaviy jang usullarini o‘rganishi va ruhiyatining chiniqishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sotib-Oldiyev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi - T.: 2009. – 65 b.
2. Sotib-Oldiyev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi - T.: 2009. – 70 b.